

Bobomurodova Fotima Ergash qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) fakultetini tamomlagan. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning ijodidan namuna gazeta, jurnal va antalogiyalarda chop etilgan. 2023-yil Turkiyaning Beygench nashriyoti tomonidan tashkil qilingan 'O'zbekistan'in yetenekli seslari' va 'Qalb gavhari' nomli kitob, Azarbayjondagi "Ziyali o'jagi" jamoat birlashmasi tomonidan tashkil qilingan xalqaro antalogiyada nashrdan chiqqan. Turkiyada "O'zbekistan'in Lider Kadınlari" kitobi taqdimoti 2024-yilning 24-25 iyun kunlari Alanya shahrida Turkiyaning "Baygench" nashriyoti O'zbekistondagi "Shine" qizlar akademiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada o'zining maqolasi bilan namunali ishtirok etib sertifikat va estalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Va yana 2024-yilning sentyabr oyida Turkiyada o'tkazilgan 'O'zbekistan'in umutlu çiçekleri' nomli antalogiyada ham faol qatnashib xalqaro sertifikatga ega bo'ldi. Qolaversa yosh ijodkor 'Eng yaxshi hikoya' statuetkasi bilan ham taqdirlangan.

**BAXTNI KUTIB YASHAMA
LAHZALARDAN TOP UNI...**

G'alatilik his qildingiz a? Qanaqasiga axir insoniyat yaratilbdiki dunyodan o'z ulushini olgandek baxtni ham bir ulush hisoblab uni turfa yo'sinlardan izlaydi, qiyoslaydi. Har birimiz tug'ilish va o'lish orasidagi bir necha yillarimizni mana shu baxtni qidirish va kutish bilan o'tkazib yuborar ekanmiz. Kim bilsin balki men ham shu birgina oddiy haqiqatni anglab yetmagunimcha hayotimning oliy maqsadi baxtli bo'lish, baxtni qidirish va topish bo'lgandir! Lekin tirikligim davomida tik boqqan haqiqatim shu bo'ldiki asl baxt o'zim ekanligimni, chinakam mo'jiza ichimda yashiringanligini, uni kutish emas, lahzada yashash kerakligini Allohning izni ila angladim! Haqiqatda hech bir mo'jizaga ehtiyojimiz yo'q. Asl ehtiyoj mo'jizani o'zimiz ekanligimizni tushunishimizda! Uni uzoqdan izlamang. Yunonlarda bir ajoyib hikoya bor: Aytishlaricha Olimpiya tog'ida yig'ilgan ma'budlar baxtlilik sirini saqlashga qaror qilishibdi. Bordiyu uni insonlar topadigan bo'lsa qadrlamay qo'yishadi, deb o'ylashibdi. Ma'budlardan biri baxtning eng baland tog'ning tepasiga yashirishni taklif qilibdi. Boshqasi esa yerning eng chuqur joyiga ko'maylik debdi, yana biri okean tubiga g'arq qilishni aytibdi. Vanihoyat bir ma'buddan yaxshi fikr chiqibdi. "Insonlar tog'ning tepasini, yerning ostini va okeanning tubini ham topib boradigan aql sohiblaridir. Afsuski shu aql idrokni o'zlariga sarflashni bilishmaydi. Baxtlilik sirini ularning qalblariga ko'maylik. Toki uni o'z qalblaridan qidirish xayollariga ham kelmasin... Baxt qalbimizda unga quloq solsak yetarli! Ha, azizim baxt maqsad emas, ruhiy holatdir. Siz ham men ham istalgan vaqt u ruhiy holatni topolamiz. To'g'ri baxtlilikning yuzdan yuz foizi bizning qo'limizda emasdir. Ammo bu muhim emas. Muhimi har kim o'z chekiga tushgan vazifani mamnuniyat ila bajarishidir. Baxtlilar har lahzani o'z o'rnida yashay

oladigan kishilardir. Qanday deysizmi? Xoxlaysizmi hozir bir nechta misollar keltiraman baxtni lahzalardan ko'ra olish va his qilish borasida. Baxtni har kim turlicha ko'radi, turlicha qiyoslaydi, umuman olganda dunyoqarashi qanchalik keng yoki torligiga tayanib o'z qarichi bilan o'lchaydi. Shoir Sadriddin Salim Buxoriy she'riyatidan ommalashib ketgan -

"Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo,

Illat izlaganga illatdir dunyo".

misralari ayni shu mavzuyimning go'zal namunasi. Qani ketdik! Hech e'tibor berganmisiz biz allaqachon o'tkazib yuborgan damlarimizni bir qancha vaqtlar, balki yillar o'tib qandaydir voqeilik sabab yodimizga tushishi bilan shirin entikamiz, beixtiyor xayol og'ushida o'tgan xotiralarimiz bilan yuzlashamiz. Nazarimda baxtli lahzalardan so'z ketganda xotiralarimiz ko'pincha bolalik damlarimizni yodga solaveradi. Yo'q, yo'q bolalik deganda men erka, tantiq, istagani muhayyo bo'ladigan, biroz xudbinroq, xona to'la o'yinchoqlarni nazarda tutmadim. Taqdirlar turfa xil ekanki, bolalikni ham taqdir har birimizga turlicha tuhfa qilgan! Bu borada kimningdir omadi chopgan bo'lsa, kimningdir umrining eng shirin damlari qiyinchiliklar, mehnat, ora sirada bo'ladigan janjallar, yetishmovchilik va hokazolar bilan o'tgan. Lekin tan olaylik unda ota onamiz yosh biz esa beg'ubor edik. Birgalikda o'tkazgan mehrli davralarimiz, samimiyat yuzlaridan ufurib turgan insonlar qurshovida edik. Chinakam baxt ayni o'sha lahzalarda yashiringan. O'zimning ayni his qilgan lahzaliklarim! Dadajonimning men va singlimni egizaklardek kiyintirib ikki qo'limizdan yetaklab tez-tez kechki sayrga olib chiqishlari; bir gal esimda bahor kelib kunlar endi isiy boshlagan edi. Dadam ishdan yaxshi kayfiyatda kirib keldilar. Kelishlari bilan "Zolushka Fotishka tayorlaninglar, muzqaymoqqa olib boraman. Onasi tez kiyintir bularni" deb o'zlari bizni kuta boshladilar. Biz o'zimizga yo'q xursand vanihoyat sovuq qishni o'tkazib muzqaymoq yeydigan bo'ldik deya onam va opam bayramga tikib berishgan atlas ko'ylaklarimizni apil tapil kiya boshladik atlas nusxa tushirilgan do'ppimizni ham unutmadik.

Dadam doimgidek qo'llarimizdan yetaklab uyimizdan biroz uzoqlikdagi do'konga olib borar ekanlar ichimda o'zgacha bir faxr hissi bilan ko'cha ko'yda o'tib ketayotganlarga men dadamning qiziman, bizni muzqaymoqqa olib boryabdilar deb maqtangandek beg'ubor bolalarcha qarardim! Hozir shu xotiralarni eslab turar ekanman beixtiyor yuzimga kulgu yugurdi. O'zimga o'zim "Hoy Fotima, balki qaranglar mening atlas ko'ylagim ham bor deya maqtangandursan"- deb. Xullas o'sha kuni do'konga yetib borsak do'konchi amaki muzqaymoqning yaqinda tugab qolganini yana ozroq kutsak shahar markazidan yangi buyurtmalar kelishini aytdi. Singlim ikalamiz zo'r ishtiyoq bilan kelganimiz uchunmi negadir kayfiyatimiz tushib ketdi. Buni sezgan dadam ajoyib hazillari bilan kayfiyatimizni ko'tarishga harakat qilar edilar. Ha u paytlarda hozirgidek katta muzlatgichlar yoki alohida o'tirib muzqaymoq yeydigan joylar yo'q edi, bir do'konda birgina kichkina muzlatgich va biz kutadigan bo'ldik. Do'kon oldidagi o'rindiqqa o'tirib dadamning kulgili hazil va latifalari bilan vaqt bir zumda o'tganini sezmaganimiz. Bularni nega yozyabman, balki kimdir uchun bunday holatlar oddiydek tuyilishi mumkin. Lekin ulg'ayganingiz sari baxtini sizning kulguyingizdan topgan,




sizning samimiy va beg'ubor kulguyingiz uchun borini berishgan insonlar hayotning asl ne'mati ekanligini tushuna boshlaysiz. Yozganim sayin bir narsaga amin bo'lyabmanki, shunchaki o'tkazib yuborgan lahzaliklarim ko'p ekan. Bularning barchasi haqida batafsil yozolmasligimni, barchasini birgina hikoya ichiga sig'dira olmasligimni sezib tursamda ishonchim komil, "Baxtni lahzalardan qanday topish mumkin" savoli bilan yuzlashib turgan kimki bo'lsa arzirli javob topa oladi. Gul do'konlarining oldidan har safar o'tganimga ko'zim tushgan moychechak gullari - yana bolaligim, uyimizning orqa tomonidagi keng adirliklari, bunda yarashib o'sgan dasta-dasta moychechaklar tasviri jonlanadi. Yashil adirliklarda alvon lolaqizg'aldoqlardan yasagan gulchambarlarimiz. Bahor yomg'iri tinishi bilan qirlarga yugurib, kim ko'p qo'ziqorin terish musobaqasini uyushtirganlarimiz va moviy osmonga termulib bulutlar ortidan chiqayotgan kamalakni kuzatishimiz. Go'yoki ko'z qorachig'imiz bulutlar bilan raqsga tushayotgandek. Bahorgi sayllarniku aytmasam bo'lmas, turli tuman sayllar, laparlar, xalq o'yinlari, doshqozondagi sumalaklar, bularning har biri o'zgacha zavqqa, bolalik hissiyotlariga, jo'shqinliklariga limmo-lim o'tgan! Menga eng yoqimli hissiyotni beradigan quyosh botishini kuzatishim kunlik odatlarim qatorida edi. Haligacha fursat tug'ilishi bilanoq bu tilsimlikni zo'r ishtiyoq ila kuzataman. Umuman olganda quyosh chiqishi va botishi juda ko'p sirlarni o'z ichiga oladi! Bu mo'jiza oldida biz biroz oddiyeckmiz, faqat o'z atrofimizdagi go'zalliklarni kamdan-kam ko'ramiz. Quyosh botishini kuzatayotib hozirgi onimni, hozirgi kunimni qadrlashni. Ertangi kun uchun hech kim kafolat bermasligini, bugungi hayotimdagi yaxshiliklar, go'zal narsalar uchun shukronalikni his qilsam, quyoshning chiqishi esa menda yana bir imkon borligini eslatish uchun Allohning menga ko'rsatayotgan belgisi ekanligini, bugun kechagidan yaxshiroq bo'lishim uchun, maqsadlarim tomon qadam tashlashim uchun, o'zimga ishonish uchun, chiroyliroq yashashimga imkoniyat borligini eslatadi. Hammasi o'z qo'limizda. Qalban Yaratganga ishonch bilan shukr bilan va chiroyli tabassum bilan o'z olamimizni go'zallashtira olamiz. Qayerga borsak ham o'zimizdan hamisha nur tarata olamiz! Va yana onajonimning har tongi sehrli quchoqlari! Bu haqida birinchi yozgan hikoyamda batafsil yoritganman. Va yana birgalikda o'tkazgan zavqli davralarimiz, kitobxonlik kechalari, maroqli suhbatlarimiz, bularning barchasida baxt yashagan!

Yomg'irdan keyingi iliq havoda shunchaki sayrga chiqishni xush ko'rishim, o'zimni go'yoki tabiatga bog'langandek his qilishim, eng ko'p energiyani ko'klamdan olishim, tabiatni sevishim ham shundandir balki! Va bunday manzaralarni o'zim uchun estalik sifatida, kayfiyatimning a'lo darajasidan bir parcha sifatida rasmga olib yana bir baxtli lahzalikni muhrlash!


Yoqtirgan kutubxonamga tez tez borishim, dunyodan biroz muddat uzilib, mutoala zavqiga berilish, qolaversa bu kutubxonaning menga bergan go'zal xotiralari sabab qalbim halovat topishi! Menga onalik maqomi berilgan kun! Onalik mehrini, onalik baxtini his qildirgan mitti qo'lchalar, birgina yig'lashini eshitishim bilanoq unutgan dardlarim. Jannat ifori barq urib turgan nuryuzli o'g'lim Muhammadyusufim olib kelgan baxt! Allohim meni shunday buyuk baxt bilan siylagani, oliy maqom- onalik maqomini bergani uchun shukronalik tuyg'usi quvonch yoshlari ila izhor etilgan kun! Shu bilan

birga katta mas'uliyat ham yuklatilgan kun. Negaki bola uchun dunyoga keltirgan inson bo'lishimizdan tashqari, birinchi navbatda bola dunyosining o'zini tashkil qilamiz. Bola dunyoga kelganidan ma'lum yoshga qadar onaga bog'liq bo'ladi. Onaning bir bo'lagi hisoblanadi. Bola ulg'ayish jarayonida dunyoga ilk marotaba onasining ko'zlari bilan qaraydi. Ona his qilgan har qanday tuyg'ularni his qila oladi. Chunki bolada ko'zgu neyronlari, ya'ni his tuyg'ularini his qilish, anglash, tushunish, kattalarga nisbatan ancha faol bo'ladi. E'tibor berganmisiz, yosh bolalar yig'layotgan bolani ko'rganlarida xuddi u kabi homushlanib, yig'lay boshlaydilar?! Kimdir esnashni boshlasa uni kuzatib turgan insonlar ham bevosita esnab yuborishlariga nima deysiz? Birgalikda ko'p vaqt o'tkazadigan odamlarning harakatlari bir-biriga o'xshash bo'lib qolishigachi? Kino ko'rayotib, nega qahramonlar his tuyg'ularini o'zingizda tuyushingizni tushuna boshladingizmi? Xullas, ko'zgu neyronlari biz kuzatib turgan insonlarimizdagi tuyg'ularni his qila olishimizda harakatlarda taqlid qilishimizni ta'minlaydi. Baxtiyor insonlar yonida beixtiyor yuzimizga tabassum yugurishi, xavotirli, g'amgin odam oldida biroz qayg'u his qilishimiz ko'zgu neyronlari ularning hissiy holatini o'zida aks ettirishidan dalolat. Unda nega aynan bolalarda ko'zgu neyronlari haqida alohida ta'kidlanadi? Chunki bolada hali qanday bo'lish haqida qolip yo'q; U bolaligining asosiy qismini kuzatish bilan o'tkazadi. Ko'zgu neyronlari esa uzoq kuzatishlar davomida kuchli ta'sirlanadi. Demakki, bolalarimiz bizning harakatlarimizga taqlid qilar ekan biz yaxshi namuna bo'la olishimiz juda muhim! O'zimizdan mukammallik kutish ba'zida bizni stressga soladi. Ammo harakat qilish, urinish, qo'limizdan kelgan eng yaxshisini qilish har doim oson va foydali! Baxtli bo'lganimiz qadar farzandimizga baxt ulashaylik. Baxt yuqumli, kayfiyat yuqumli, energiya yuqumli bularning barini dilbandimizga ko'proq yuqtiraylik, imkon tug'ilishi bilan ularning xotirasiga baxtli lahzalarni muhrlaylik! Uzoq masofaga yo'lga chiqqaningizda audio kitob yoki sevimli musiqangizni tinglab ketishingiz. Uyingizga har kuni besh mahal azon ovozi eshitilib turishi! Yomg'irdan so'ng musaffo, nafas olganingiz sari yengillik his qiladigan sof, toza havodan to'yib nafas olishingiz! Anglay olsak har nafasimiz baxt ekanligiga amin bo'lib boraveramiz! Bundan tashqari eng katta xotirjamlik va minnatdorlikni his qildiradigan tuyg'u bu shukronalikdir. Ha azizim, shukronalik mo'jizalarini har birimiz bilganimizda edi, aslida bizga berilgan behisob ne'matlarning shukrini ado qilib ko'piga erishardik. Oziga qanoat qilmagan, ko'piga erisha olmas deyishadi. Hayotda shukr qilishimiz kerak bo'lgan, Alloh bizga beminnat bergan ne'matlar sanoqsiz, eng ko'p shukr qilishimiz kerak bo'lgani yangi bir tongni qarshi olishimizdir. Mavlononing bir jumlasini har safar eslaganimda qalbimda xotirjamlik his qilaman. "Dardlar faqat mening boshimda deb o'ylama, sendagi dardni ne'mat hisoblaydiganlar bor". Boshimizga kelayotgan sinovlar bir kun tugaydi. Qorong'u tunning ortidan keladigan, kelsa ham bizni quvontirib keladigan yorug'liklar bor. Umidsizlikka tushganimizda Sajda surasining 17-oyatini eslaylik; "Hech kim o'zi uchun yashirilgan mo'jizani va baxtlilikni bilolmas"...

Keling endi biz kelajak uchun atab qo'ygan maqsadlarimiz, orzularimiz, niyatlarimiz haqida ham biroz fikr yuritamiz. Maqsad deganda faqatgina moddiyat emas, moliyaviy maqsadlarimiz o'z yo'lga. Menimcha bunday maqsadlarimiz shundoq ham har birimizda

bor. Uy, mashina, lavozim va hokazo. Lekin sizda shunday maqsad bo'lishi kerakki siz uchun, ruhingiz uzra haqiqatda xursandchilik olib keladigan, har onida baxtni his qiladigan va eng muhimi aqlingizning emas, qalbingizning tanlovi bo'lgan maqsadlar yoki niyatlar jamlanmasi! Bormi sizda shunday qalbingizning maqsadlari? O'ylanib qoldingizmi? To'xtang! Bir soniya chuqur nafas oling va ko'zlaringizni yumib sekin qalbingizdan yoki qo'sh tirnoq ichidagi "Jamiyatning" nima deydi, nima deydilaridan cho'chiyotgan ruhingizdan so'rangchi u nima der ekan?! Bilaman miyangizga kelgan birinchi fikr "Ajoyib xayolparast" kinofilmining sahnalari bo'layotgandir. O'zbekchilikda deya fikrlarimizni ochiq oydin hech qanday hijolatsiz yoritib bera olishdan qo'rqamiz hatto, va yoki bildirgan taqdirimizda ham yana mana shu qo'shtirnoq ichidagi "Jamiyat" ning tanqidli yomg'iri ostida soyabonsiz qolib ketamiz, so'ngida esa bizni aytib o'tganimdek "ajoyib xayolparast" maqomiga tushirib qo'yib, amalga oshirishimiz uchun bor bo'lgan imkoniyatni ham puchga chiqarishadi! Qo'ying shu o'zbekchilikni. Ahir 18 ming olam yaratuvchisi mehribon va karami keng zot Alloh bor! Amalga oshmas orzularni xayol qildirmas deyishganidek, bizning istaklarimiz uning uchun dengizdan bir tomchi xolos! Shunday maqsadlarimdan keltirib o'tadigan bo'lsam, biri cheksizlikni dengiz orqali his qilish bo'lsa, yana biri quyosh botar chog'ida motosiklning eng oxirgi tezligida adrenalin sayohat qilish, keyingisi umrimning 4 faslini men xoxlagan davlatlarda: Bahorni Yaponiyada, yozni Fransiya, kuzni Shotlandiyada va qishni esa Nyu-Yorkda o'tkazish! Skripka chalishni o'rganib men judayam sevgan "Ayol tarovati" nomli musiqani ijro qilayotganimni qalbdan his qilish, ha ha aynan tasavvur qilishni o'zida o'zimni eng baxtiyor sezyabmanki, endi esa shu voqeliklarning aynan o'zidachi, hayajonimni to'laqonli tarzda tasvirlab berish uchun qalamim ojiz! Qolgani esa siriligicha qolsin. Bu lahzaliklarim umrimning qaysi qismida, nechi yoshimda va qay tarzda nasib qilishini bilmayman, biroq ishonamanki karami keng mehribon Alloh uchun, mening istaklarim dengizdan bir tomchi xolos! Va bularning uddasidan chiqib, biz uchun tayorlangan ne'matlarni qarshi olish uchun muayyan vaqtni kutmang, to'g'ri vaqt kelmas. Kelgan joyingizdan davom eting, qo'lingizda bo'lgan bor imkoniyatdan foydalaning. Odimlaganingiz sayin oldinda ko'p imkon paydo bo'laveradi. Hech narsani kechiktirmang, albatta yoningizda qo'shimcha rejangiz bo'lsin. Yiqilsangiz o'zingizga suyanadigan, o'zingiz oyoqqa turadigan irodali rejangiz. Chunki hayotning kutilmagan zarbalari, ozorlari sizni taslim qilishga ulgurmasdan keyingi rejangizni qo'llang. Sizni jarlikka uloqtirgan, rivojlanishingizni istamagan, doim nolinaveradigan, bechoralik niqobini kiygan, hech narsadan ko'ngli to'lmaydigan va o'zining nazdida sizdan kimnidir yasab qo'rganlar bilan orangizda masofa qo'ying! Masofa qo'yingki, sizning dunyoga beg'ubor ko'zlaringiz bilan qaraydigan, yashashga ishtiyoqingizni oshiradigan derazangizni, o'zlarining kamchilik qidiraverib hasaddan qorayib kirlanib ketgan derazlariga o'xshatib qo'yishmasin. Shu on Sadriddin Salim Buxoriyning bir maqoli yodimga tushdi; Kir izlama dunyodan, dunyoda kir bisyordir! Dunyo har birimiz uchun bir xil faqatgina unga qaraydigan nazarlarimiz, qalb ko'zlarimiz turlicha, shunchaki atrofga bo'lgan nazarimizni o'zgartiraylik.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS



Yiqilishingizni, taslim bo'lishingizni istayotgan va azob cheksangiz rohatlanadigan insonlar bilan o'ralashib qolib, dardingizni dard deb hisoblaydigan, sizni boringizcha qadrlab, chindan sevguvchi go'zal qalblarni unutib qo'ymang! Boshingizga kelgan darddan isyon qilmang. Xotirjamlik bilan qabul qilgan holda, "Bu dard bekorga menga berilmadi, bu meni yanayam kuchli qiladi deng". Eng muhimi esa ulardek javob qaytarishingiz shart emas. Shunchaki kechirib yuboring va yo'lingizda davom eting. To'g'ri kechirish o'tmishni o'zgartirolmaydi, biroq kelajagimizga yo'l ochadi. Kimnidir kechirib uni emas o'zimizni va ruhimizni og'ir yuklardan xalos etamiz. Qolaversa kechirolmayotgan bir qancha xafagarchiliklarimiz sababli, dardlar, siqilishlar sababli rivojlanayotgan xastaliklardan o'zimizni qutqaramiz! Osonlikcha kechirolmayman deysizmi? Kerak bo'lsa o'qing, izlaning, kechirish muolajalarini qiling, lekin har eslaganingizda kayfiyatingizni tushuradigan, qalbingizni tushkunlikka soladigan yuklarni umr bo'yi ko'tarib yurishga aslo rozi bo'lmang. Bu sizni asosiy yo'lingizdan adashtiradi. Qanchalik xafagarchiliklarga e'tibor qaratib, ichida qolib ketganingiz qadar maqsadlaringiz uzoqlashib boraveradi! Kechirish esa o'zingizga qilgan eng katta yaxshiligingizdir! Kechiring va undan keyingi yengillikni his qiling! Ishonavering qalbingizning cheksiz sakinatiga erishasiz! Vaziyatimizni o'zgartirishni Xudodan so'raymizu, uni aslida biz o'zgarishimiz uchun yuborganini tushunmaymiz. Zero hech bir jonga toqatidan ortig'i berilmas. Muammolar hayotimizda o'rni bo'lgani uchun beriladi. Ayni shu nuqtada insonlar ikkiga bo'linadi, ya'ni istaganiga erishadiganlar va taslim bo'ladiganlar. Bilasizmi bir paytlar yo'qotishni katta dard deb hisoblardim! Men uchun qadrli bo'lgan insonlar va narsalarni yo'qotishdan qattiq qo'rqqar edim. Yaqin insonlarimni vafot etishlarini yoki hayotimda yo'q bo'lishlarini o'ylasam, ulardan keyingi hayotni tasavvur qilolmas, go'yoki ularsiz, o'zimni dunyodagi eng baxtsiz va zaif insonlar qatorida ko'rar edim!

Yo'q! Hayot hech narsaga qaramasdan davom etar ekan, biz ham borligiga ko'nikkan har bir narsamizning yo'qligini ham qabul qila olishimiz kerak. Tajriba deganlari osonlikcha qo'lga kiritilmaydi. Yo'qotishlarning alami, azobi og'ir va achchiq. Pishish uchun biroz yonmoq kerak. Vaqti kelganda shu olovda yonishga ham rozi bo'lishimiz kerak. Bunda jonimiz azoblanishi o'zimiz parcha parcha bo'lib ketishimiz, charchashimiz mumkin. Biroq har biri natija arziydi. Negaki evaziga noyob tajribani qo'lga kiritamiz. Bora bora biror qayg'uga botganimizda, jonimiz yonganda o'zimizni oldingidan ham tez qo'lga oladigan bo'lamiz. Yo'qota yo'qota hayotdagi barcha musibatlarga chidamli bo'lib boraveramiz. Mashhur turk yozuvchisi Mirach Chag'ri Oqtosh ta'kidlaganidek hayot yutqazgan joyimizdan boshlanadi! Ichida talaygina ma'nolar yashirilgan g'oyatda ajoyib jumalari borki qalbimga o'zgacha taskinlik bag'ishlaydi! Ya'ni, "Yutqazdim deb o'ylaganingda shu so'zlar senga taskin bo'lsin. Qalbi go'zal inson yutqazsa ham g'olib bo'ladi"! Yutqazib turib, g'oliblik haqida gap ketishi bizni biroz mushohadaga chorlaydi. Menimcha ham haqiqiy g'oliblik hissiyotlari bilan ayni shu on to'qnashamiz! Aniqrog'i o'zimizni yangidan kashf qilish, Alloh bergan qobiliyatlarni aniqlab olish vaqti kelgan bo'ladi. Ayni shu vaziyatlarda o'zimizni yanayam yaxshiroq taniy boshlaymiz, qobiliyatlarimiz va imkoniyatlarimizni to'g'ri baholay olamiz. O'zimizni qo'limizdan

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o‘zimiz tuta olishimiz, tushkunliklardan, muammolardan o‘zimizni o‘zimiz qutqara olishimiz, tugamaydi deb o‘ylagan azoblarimiz ustidan g‘alaba qozona olishimiz, yiqilishdan va xato qilishdan qo‘rqmasligimiz, aynan shu yiqilishlar va xatolar bizga chinakam g‘alaba olib kelishini his qilishimiz. Yiqilsakda, hech narsaga qaramasdan qayta oyoqqa tura olishimizdagi ishonch va Allohga tavakkal qilib yo‘limizda davom etishimiz! His qilyabsizmi! Bularning barchasi g‘oliblikdir! Mana sizga haqiqiy mo‘jiza o‘zimiz ekanligimizning yana bir yorqin dalili. Biz faqatgina o‘zligimizdan voz kechmasak bas! Shu on ijodiga hurmatim cheksiz bo‘lgan Mirach Chag‘ri Oqtoshning kurashishga undaydigan fikrlarini yozishni lozim topdim! "Xafa bo‘lishing mumkin, biroq voz kechmaysan!

Zarracha umiding qolmasligi ham mumkin, biroq voz kechmaysan!

Hayotdan charchashing mumkin, biroq voz kechmaysan!

Yo‘qotishing ham mumkin, biroq voz kechmaysan!

Ortingdan gapirishdan to‘xtamasliklari mumkin, shunda ham voz kechmaysan!

Tanqidlarga uchrashing mumkin, biroq voz kechmaysan!

Aybsiz aybdor bo‘lsang ham, biroq voz kechmaysan!

Yoningda kimsa qolmasa ham, biroq voz kechmaysan!

Yolg‘iz qolsang ham, voz kechmaysan!

Yerga yiqilsang ham, voz kechmaysan!

Omading chopmasa ham, voz kechmaysan!

Voz kechish fikri xayolingga kelsa ham, voz kechmaysan! Boshingga har balo kelishi mumkin. Ostonangda muammolar payt poylashi mumkin. Hatto kurasha olmaydigan holga kelib qolarsan. Nima bo‘lsa bo‘lsin, biroq voz kechmaysan! "

Ha azizim, zero siz ham baxtni lahzaliklardan topishdan aslo voz kechmang!

